

## SOG`LOM BOLANI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYANING O`RNI

*Turon xalqaro universiteti gumanitar fanlar va pedagogika fakulteti lingvistika  
(ingliz tili) yo`nalishi 1-kurs magistranti  
Meliqo`ziyeva O`g'ilxon Latifjon qizi*

*“Agar mendan sizni nima qiyaydi?” deb  
so‘rasangiz, farzandlarimizning ta’lim va  
tarbiyasi deb javob beraman.  
(Sh.Mirziyoyev)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarbiya jarayonlarining asosiy maqsadi va mazmuni nimalardan iboratligi, tarbiyaning ta’lim bilan uzbek bog’liqligi va o’sib kelayotgan yosh avlodni to’g’ri tarbiyalash haqida buyuk ajdodlarimiz hamda taniqli insonlarning fikr-mulohazalari, umumiy ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** tarbiya, oila, bola tarbiyasi, davlat, barkamol avlod.

Erkin demokratik, fuqarolik jamiyat qurilayotgan yurtimizda barkamol avlod tarbiyasiga katta e’tibor qaratilar ekan, bu masalaning oila-nikoh munosabatlariga bog’liq jihatlari milliy tarbiyaning negizini tashkil etadi. Chunki yetuk, barkamol, sog‘lom avlod, sog‘lom oilaviy munosabatlar sharoitida tarbiyalanadi va jamiyat rivojiga o‘z hissasini qo‘sadi. Shu bois ham O‘zbekistonda oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Yaqin o‘tgan davr ichida, aniqrog‘i, mustaqillik yillarida shaxsan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari va qo’llab-quvvatlovleri bilan oila, xotin-qizlar, keksalar va bolalar ijtimoiy muhofazasini ta’minlashga qaratilgan **100 dan ortiq turli qonun va normativ hujjatlar, Prezident farmonlari va farmoyishlari e’lon qilindi va hayotga joriy etildi**. Jumladan, »**5 Tashabbus**» tadbirlarining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani bunga yaqqol misol bo`la oladi. Ayniqsa, yillarga maqom berish munosabati bilan qabul qilinayotgan har yilgi davlat dasturlari bu toifa aholi manfaatlarini amalda himoya qilishga qaratilgan sa’y-harakatlar mamlakatimizda olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning yaqqol dalilidir. 2024-yilning prezidentimiz tomonidan «**Yoshlar va biznesni qo’llab -quvvatlash**» yili deb atalgani esa bu boradagi xayrli ishlarning bardavomligini ko’rsatib turibdi.

«Sog’lom va barkamol avlodni tarbiyalashda jamiyatimizning eng muhim, hal qiluvchi bo’g’ini bo’lmish oilaga alohida e’tibor berish va uni har tomonlama asrab avaylash zarur. Xalqimizda “Qush uyasida ko’rganini qiladi” degan ibora bejiz aytilmagan, bunda chuqur mano-mazmun bor. O’g’il-qizlarimizni el-yurtimizga munosib farzand, ertaga Vatanimizning haqiqiy fuqarosi bo’ladigan insonlar etib

tarbiyalash avvalo, oila bag’rida, oilaning sog’lom iqlimi, ota-onaning bir biriga mehri va hurmati sharoitida chuqur ildiz otishini taminlashimiz zarur.

Shuning uchun ham **I-prezidentimiz Islom Karimov** oila va undagi an’analarga, milliy qadriyatlarimizga juda katta e’tibor berib, oilaning mustahkam bo’lishi, unda yosh avlod tarbiyasining to’g’ri yo’lga qo’yliganligi eng avvalo milliy g’oyani bolalar ongi va shuuriga singdirishda katta rol o’ynashini ta’kidlab, shu asnoda tarkib topadigan qarashlar tizimini millatning mafkurasi deb ta’riflaydi: «*Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtida shu xalq, shu millatning kelajagini ko’zlagan va uning dunyodagi o’rnini aniqravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni o’rtasida o’ziga xos ko’prik bo’lishga qodir g’oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman».*

Oilada bola tarbiyasi masalasi buyuk mutafakkir-shoir **A.Navoiy** merosida munosib o’rinni egallaydi. U o’zining qator asarlarida ta’lim tarbiya masalalari **umuminsoniy g’oya** ekanligini o’rtaga surdi. Uning fikricha, jamiyatning yetukligi, uning taqdiri va kelajagi, yoshlar kamoloti bilan bog’liqdir, shunga ko’ra bola tarbiyasi ota-onalar olidida turgan olijanob vazifadir, deydi.

Bolani faqat u bilan gaplashganda, nasihat qilganda yoki unga biror narsa buyurgandagina tarbiyalayman, deb o`ylamang. Siz bolani turmushingizning har bir onida, hatto o`zingiz uyda yo`qligingizda ham tarbiyalaysiz. Sizning qanday kiyinishingiz, boshqalar bilan va boshqalar haqida qanday gaplashishingiz, xursand bo`lishingiz, do`sht va dushmaningiz bilan qanday muomala qilishingiz, kulishingiz, gazeta o`qishingiz-bular hammasi bola uchun katta ahamiyatga ega. Gapingiz ohangi sal o`zgarsa ham bola buni darrov payqab oladi yoki sezadi, bola fikringizdagi hamma o`zgarishlarni har xil yo`llar bilan bilib oladi, lekin o`zingiz bundan bexabar bo`lasiz. Agar siz uyda qo`pollik yoki maqtanchoqlik qilsangiz yoki ichkilik ichsangiz, undan ham yomoni onani haqorat qilsangiz siz bolalaringizga nihoyatda katta zarar etkazgan bo`lasiz, ularga yomon tarbiya bergen bo`lasiz va sizning bu nojo`ya qiliqlaringizning oqibati yomon bo`ladi”, - degan edi **mashhur pedagog A. S. Makarenko**. Yuqorida ifodalangan sifatlar majmui oilada ota-onalar obro`sini tashkil etadi. Shuning uchun oila tarbiyasida ota-onalar o`ta sezgir va ziyrak bo`lmoqlari darkor.

Bolalarni yoshligidan mehnatga, hunarga o’rgatib borish orqali ularning aqliy salohiyatini oshirish mumkin. Agar mehnatning turi o’g’il-qizlarning kuchiga, yoshiga, didiga, qobiliyatiga va qiziqishiga mos tushsa, ularning mehnatga bo’lgan munosabati yanada ortadi. Bola oilada qancha ko’p mehnat qilsa, uning aqli, ongi shunchalik rivojlanadi. Hayotning achchiq-chuchugini tushunib yetadi hamda ularda mustaqillikka intilish juda erta shakllanadi.

Ma’lumki, ota-bobolarimiz mehnatni ulug’lab kelganlar. Ular o’zlarining halol mehnatlari bilan keyingi avlodlarga ibrat va namuna bo’lganlar. Bizga

ulardan meros bo'lib qolgan barcha xazinalarni ilmiy-badiiy kitoblar, turli san'at asarlari, me'moriy obidalar va boshqa narsalar ana shu mehnatlar mahsulidir. Ota-onalar, mahalla, ta'lif muassasalari bolalarning mehnatga qiziqishini shakllantirishda tabiat yaratgan ne'matlar va ota-bobolarimiz tomonidan meros bo'lib qolgan xazinalarni tejab-tergab tasarruf qilish to'g'risida bilimlar berishlari kerak. Bolalar esa bu bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishlari, o'z fikr-mulohazalariga ega o'lishlari, hayot va mehnat jarayonida bunga amal qilishlari kerak.

Shuningdek, oilada bolalarda aqliy mehnat egalariga, ya'ni o'qituvchilar, olimlar, shoир-yozuvchilar, umuman insoniyatning ma'naviy yuksalishiga xizmat qiluvchi shaxslarga nisbatan hurmat va ehtiromni tarbiyalab borish, maqsadga muvofiqdir.


Jamiyatning iqtisodiy, madaniy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishi oilada bolalar tarbiyasi bilan bevosita uzviy bog'liq Bu xususida *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 77-moddasida "Ota-onalar va ularning o'rnnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lif olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.", – deb asoslab ko`rsatilgan*. Ota-onalarning bunday huquqiy burchi, vazifasi, qonuniy negizi belgilanishiga qaramasdan uni oila tarbiyasiga joriy etish sohasida kamchiliklar mavjud. Ota-onalarning farzandlar oldida obro`si bo`lmas ekan, farzandlar tarbiyasi, kamoloti ta'minlanmasligi barchaga ayon. Namunada ota-onsa o`zining so`zi, fikri, xulqi-atvori, xatti-harakati, bajarayotgan ishi orqali bola qalbini beixtiyor ishg`ol qilib ta'sir ko`rsatish deb izohlash mumkin. Shuning uchun oila tarbiyasida uning o'rnnini bosadigan kuch yo`q.

Hech narsa bolalarga namuna kuchidek ta'sir ko`rsata olmaydi. Namuna, taqlid uchun asosli manba rolini o`ynaydi. Shaxsiy namuna esa tarbiya olish sifatida o'sib kelayotgan yosh avlodning ongi va hulqiga ta'sir ko`rsatuvchi katta yoshdag'i kishilarning hatti-harakatlari va boshqa faoliyatlarini yig`indisidir.

Atrofimizni o`rab turgan barcha narsalar bilan tanishishda bola kattalarning yordamiga ehtiyoj sezadi. Yetarli darajada bilim, tajriba yo`qligi sababli ular kattalarning muomala va xatti-harakatlariga taqlid qila boshlaydi, namuna sifatida katta yoshdag'i kishilarning obro`si va kishilar bilan muomalalari bolalar xulqi hamda xarakterlarining shakllanishiga kuchli ta'sir ko`rsatadi.

*Abu Ali ibn Sino X-asrning oxiri XI-asr boshlarida yashab ijod etgan mutafakkirdir. Ibn Sino o'z tarbiyasini yaratdi, bunda: odob astronomiya, tibbiyot, maniq falsafa, tabiatshunoslik, til va uning grammatikasi, musulmon xonimshunosligi fanlarini kiritdi.*

*U tarbiya jarayoni quyidagi tasniflagan:*



Ibn Sino etika va axloqiy tarbiya masalalarini falsafiy pedagogik asosda chuqur yoritib berdi. U doimo insondagi yaxshi sifatlarni ko'ra oldi. Yaxshilik, odobli bo'lish, kamtarlik va insoniylik masalalariga ko'p asarlarida to'xtalib o'tgan edi. Ayniqsa Ibn Sino oila tarbiyasida ota-onaning o'rmini alohida ko'rsatadi.

Oila va oilada bola tarbiyasi masalasi Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy merosida ham muhim o'rinni egallaydi. U o'zining qator asarlarida bolaning salomatligi, uning tarbiyasi haqida eng muhimi bola ruhiyatini o'rganish borasida ko'plab qimmat baho fikrlarni yozadi. Ularning hammasi bir butun bo'lib, muayyan pedagogik qarashlar tizimini tashkil etadi va u ma'naviy ahloqiy barkamol insonni shakllantirish haqidagi g'oyaga borib taqaladi.

Oiladagi ma'naviy muhitni shakllantirishdagi muhim omillardan yana biri mahallada tashkil etiladigan tadbirlarda, yaxshilik va og'ir kunlarda mahalladoshlar orasida bo'ladigan oqibatli ishlardan farzandlarni ogoh etish va ularning yoshlariga va jinslariga qarab tadbirlarda ishtirok etishlarini ta'minlashdan iboratdir. Umuman olganda o'zbek oilasi hamisha ma'naviy tarbiyaga alohida e'tibor berilgan holda odob doirasidagi ko'rinishlarda tarbiya mezoniga tayanadi. O'zbek oilasida ma'naviy tarbiyani shakllantirish va unga alohida e'tibor berish haisha bosh vazifa bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Shunday qilib, yurtimiz O'zbekistonda Konstitutsiya belgilab bergen asosiy qoidalar bois, yosh oilalarni mustahkamlash, ularda tarbiyalanayotgan farzandlarni har tomonlama barkamol bo'lib yetishlari uchun shart-sharoitlar tobora yaxshilanib

bormoqda. Bu pirovardda yurtimizda ustuvor bo'lgan asosiy tamoyil "**Hamma narsa inson uchun – insonning manfaati uchun**" degan ulug'vor g'oyaning tantanasidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Ikki jildli, 1 jild. — T.: «O'qituvchi», 1995.
2. Kaykovus. Qobusnoma. -T.: «Meros», 1992.
3. Mahmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat. «Sharq», —T.: 2001-y. 66-b.